ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 250 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

"PEDAGOGIKANING PRAGMATIK ASPEKTLARI" MODULINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH MODELI VA INGLIZ TILIDAGI O'QUV MATERIALLARINI TANLASH MEZONLARI

UO'K: 378.147:37.013

Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: zarnigorxonmeliqoziyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada magistraturada "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida, ingliz tilidagi autentik materiallardan foydalanib o'qitish modeli taqdim etiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish, ekspert baholash va kvazi-eksperimental tajriba-sinov qo'llanildi; unda uchta oliy ta'lim muassasasining 182 nafar magistranti (100 nafari tajriba, 82 nafari nazorat guruhida) ishtirok etdi.

Ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlashning uch guruhga birlashtirilgan sakkizta didaktik mezoni ishlab chiqildi va ular asosida 208 ta material baholanib, 166 tasi materiallar bankiga kiritildi. Konstruktiv muvofiqlashtirish va teskari loyihalash g'oyalariga tayangan model maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlardan iborat; uning markaziy birligi - olti bosqichli kreativ-pragmatik mashg'ulot sikli. Yakuniy bosqichda tajriba guruhida o'rtacha ball 16,7 foizga, nazorat guruhida 5,2 foizga oshdi; guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ($\chi^2 = 7{,}76$; $t = 3{,}87$; $p < 0{,}001$), ta'sir kattaligi o'rtacha (Koen $d = 0{,}58$).

Kalit so'zlar: pedagogik pragmatika, kreativ yondashuv, magistratura, ingliz tilidagi autentik materiallar, CLIL, konstruktiv muvofiqlashtirish, kreativ-pragmatik sikl, pragmatik-pedagogik kompetensiya.

Abstract: The article presents a model for teaching the master's module "Pragmatic Aspects of Pedagogy" through a creative approach using authentic English-language materials. The study combined theoretical analysis, pedagogical modelling, expert evaluation and a quasi-experiment with 182 master's students from three universities (100 in the experimental and 82 in the control group). Eight didactic criteria for selecting English-language learning materials were developed;

208 materials were evaluated against them and 166 were included in a materials bank. Grounded in constructive alignment and backward design, the model comprises goal, content, process and outcome components, with a six-stage creative-pragmatic lesson cycle at its core. The mean score rose by 16.7% in the experimental group and by 5.2% in the control group; the difference was statistically significant ($\chi^2 = 7.76$; $t = 3.87$; $p < 0.001$), with a medium effect size (Cohen's $d = 0.58$).

Key words: pedagogical pragmatics, creative approach, master's education, authentic English-language materials, CLIL, constructive alignment, creative-pragmatic cycle, pragmatic-pedagogical competence.

Аннотация: В статье представлена модель преподавания модуля "Прагматические аспекты педагогики" в магистратуре на основе креативного подхода с использованием аутентичных англоязычных материалов. Применялись теоретический анализ, педагогическое моделирование, экспертная оценка и квазиэксперимент с участием 182 магистрантов трёх вузов (100 - экспериментальная, 82 - контрольная группа). Разработаны восемь дидактических критериев отбора англоязычных учебных материалов; по ним оценены 208 материалов, 166 из них включены в банк материалов.

Модель, опирающаяся на конструктивное выравнивание и обратное проектирование, включает целевой, содержательный, процессуальный и результативный компоненты; её центральная единица - шестиэтапный креативно-прагматический цикл занятия. Средний балл в экспериментальной группе вырос на 16,7 %, в контрольной - на 5,2 %; различия статистически достоверны ($\chi^2 = 7{,}76$; $t = 3{,}87$; $p < 0{,}001$), размер эффекта средний (d Коэна = 0,58).

Ключевые слова: педагогическая прагматика, креативный подход, магистратура, аутентичные англоязычные материалы, CLIL, конструктивное выравнивание, креативно-прагматический цикл, прагматико-педагогическая компетенция.

KIRISH

Magistratura bitiruvchisidan bilimni yangi va notanish vaziyatlarda qo'llay olish, to'liq bo'lmagan ma'lumot asosida asoslangan qaror qabul qilish talab etiladi [16]. Pedagogika yo'nalishida bu talab pedagogik pragmatika - pedagogik bilimni real ta'lim vaziyatiga moslashtirish, qo'llash va natijasini refleksiv baholash bilan bevosita bog'liq. Pragmatizm an'anasida J.Dyui ta'limni tajribani uzluksiz qayta qurish jarayoni sifatida ta'riflagan [5], D.Shyon esa kasbiy amaliyotni tayyor qoidalarni qo'llash emas, balki noaniq vaziyatda refleksiya qilish deb ko'rsatgan [14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va kredit-modul tizimi ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali belgilashni talab qilmoqda. Biroq "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini o'qitish amaliyoti bu talabga to'liq javob bermaydi. Uchta OTMda o'tkazilgan aniqlovchi tadqiqot shuni ko'rsatdi: o'quv dasturlaridagi 15 ta ta'lim natijasidan atigi 6 tasi amaliy qo'llash va kreativlikka oid; real pedagogik vaziyatlar bilan ishlashga oid mavzular 3,3-4,5 foizni tashkil etadi; adabiyotlar ro'yxatida ingliz tilidagi manbalar ulushi 0-12,5 foiz, oxirgi o'n yilda nashr etilganlari esa umuman yo'q. Kuzatilgan mashg'ulotlarda o'qituvchi nutqi vaqtning 62 foizini egallagan.

Xorijiy tadqiqotlarda kreativlikni oliy ta'limda aniq ta'lim natijasi sifatida belgilash va baholash zarurligi asoslangan [11; 19], fan mazmunini chet tilida o'qitish (CLIL) bo'yicha esa mazmun, til va kognitsiyani uyg'unlashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan [4]. Ammo pedagogik pragmatikani magistraturada kreativ yondashuv asosida va ingliz tilidagi autentik materiallar yordamida o'qitishning yaxlit modeli, shuningdek, bunday materiallarni tanlashning didaktik mezonlari hozircha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modelini va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini tajribada tekshirish.

Tadqiqot uch savolga javob izlaydi:

1) ingliz tilidagi materiallar qanday mezonlar asosida tanlanishi lozim;
2) modul qanday tuzilmali model asosida o'qitilganda kreativ va pragmatik natijalarga muvofiqlashadi;
3) model magistrantlarning pragmatik-pedagogik kompetensiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi: loyihalash bosqichida model va materiallarni tanlash mezonlari ishlab chiqildi, tekshirish bosqichida esa ularning samaradorligi kvazi-eksperiment orqali baholandi. Kvazi-eksperimentda dastlabki va yakuniy o'lchovli, ekvivalent bo'lmagan nazorat guruhli dizayn qo'llanildi [15], chunki o'quv guruhlari ma'muriy tartibda shakllantiriladi va tasodifiy taqsimlash imkoni yo'q.

Tajriba 2025-2026-o'quv yilida Farg'ona davlat universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazildi. Unda 182 nafar magistrant (tajriba guruhida 100, nazorat guruhida 82) va 24 nafar professor-o'qituvchi ishtirok etdi. Guruhlarning boshlang'ich holati Pirson χ^2 mezoni bilan qiyoslandi va farq aniqlanmadi ($\chi^2 = 0,14$; $p = 0,93$). Model pedagogik modellashtirish va tizimli yondashuv asosida, J.Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish [1] hamda G.Uiggins va J.Maktayning teskari loyihalash [20] g'oyalariga tayanib qurildi: avval kutilayotgan ta'lim natijalari, so'ng ularni tasdiqlovchi baholash vazifalari, oxirida o'quv faoliyati va mazmun belgilandi. Ta'lim natijalari SOLO taksonomiyasi asosida ifodalandi [2].

Mezonlar autentiklik [6], tushunarli kirish va kognitiv yuklama [17], CLIL [4] va o'quv materiallarini ishlab chiqish [13; 18] nazariyalari asosida shakllantirildi. Har bir mezon 0-2 ballik shkala bo'yicha baholandi (maksimal 16 ball); har bir materialni pedagogika va ingliz tili bo'yicha ikki ekspert mustaqil baholadi. Lingvistik muvofiqlik uchun leksik qamrov (yordamsiz tushunish uchun so'zlarning taxminan 98 foizi tanish bo'lishi lozim [10]), akademik leksika ulushi va Flesch o'qilish indeksi hisoblandi.

Pragmatik-pedagogik kompetensiya to'rt komponent (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kreativ-faoliyatli, refleksiv), o'n ikki ko'rsatkich va uch daraja bo'yicha baholandi. Diagnostika majmuasi so'rovnoma, bilim testi, ingliz tilidagi keyslar asosidagi keys-test va refleksiv essedan iborat bo'ldi; umumiy ball 12-36 oralig'ida. Vositalarning ichki muvofiqligi Kronbax alfa (so'rovnoma $\alpha = 0,84$; test $\alpha = 0,78$), ekspertlar muvofiqligi Koen kappa ($\kappa = 0,72$) orqali tekshirildi. Yakuniy bosqichda keys-test va esselar guruhga mansubligi oshkor etilmagan holda baholandi.

Daraja taqsimotlari Pirson χ^2 mezoni, o‘rtacha ballar Uelch tuzatmali Styudent t-mezoni bilan qiyoslandi; ta’sir kattaligi Koen d koeffitsiyenti orqali baholandi [3]. Ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0,05$.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida uch guruhga birlashtirilgan sakkizta didaktik mezon ishlab chiqildi (1-jadval). Ikki mezon - ilmiy ishonchlilik va texnik-huquqiy qulaylik to‘xtatuvchi hisoblanadi: ular bo‘yicha 0 ball olgan material umumiy balldan qat’i nazar tanlanmaydi.

1-jadval: **Ingliz tilidagi o‘quv materiallarini tanlash mezonlari**

Guruh	Mezon	Materialdan nima talab qilinadi
Mazmuniy	Autentiklik	Real akademik yoki pedagogik muloqot uchun yaratilgan, til o‘rgatish uchun soddalashtirilmagan
Mazmuniy	Kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik	Modulning aniq mavzusi va pedagogik pragmatikaning bir jihatiga mos
Mazmuniy	Ilmiy ishonchlilik va dolzarblik*	Taqrizlangan yoki nufuzli manba; klassik matnlardan tashqari asosan so‘nggi 10-15 yil
Faoliyatli	Muammolilik	Ochiq masala, dilemma yoki bir nechta talqinga yo‘l qo‘yadi
Faoliyatli	Kreativ salohiyat	Muqobil yechim, moslashtirish yoki loyiha topshirig‘i tuzishga imkon beradi
Qo‘llanish	Lingvistik muvofiqlik	Asosiy qism uchun CEFR B1+-C1 darajasida yoki qo‘llab-quvvatlash bilan tushunarli
Qo‘llanish	Madaniy moslashtirish imkoniyati	O‘zbek ta’lim konteksti bilan qiyoslash mumkin, milliy qadriyatlarga zid emas
Qo‘llanish	Didaktik va texnik-huquqiy qulaylik*	Hajmi mos (matn 1500-3000 so‘z, video 3-15 daqiqa), foydalanish huquqi aniq

To‘xtatuvchi mezon. Baholash shkalasi: 13-16 ball - o‘zgartirishsiz, 8-12 ball - moslashtirilgan holda foydalaniladi, 7 ball va undan past - yaroqsiz.

Mezonlar bo‘yicha 208 ta material baholandi: 74 tasi o‘zgartirishsiz, 92 tasi moslashtirilgan holda tanlandi, 42 tasi rad etildi (2-jadval). Keyslarda moslashtirish ulushi eng yuqori bo‘ldi (64 tadan 32 tasi), chunki ularning ko‘pchiligida yechim tayyor berilgan va ochiq yakun qoldirish uchun qayta tuzilmalash talab etildi. Moslashtirishda “matnni emas, topshiriqni moslashtirish” tamoyiliga amal qilindi [7]: ilmiy maqola va klassik matnlarning tili o‘zgartirilmadi, qo‘llab-quvvatlash terminologik lug‘at, yo‘naltiruvchi savollar va segmentatsiya orqali berildi.

2-jadval: **Materiallar banki tarkibi (soni)**

Material turi	Ko‘rib chiqilgan	O‘zgartirishsiz tanlangan	Moslashtirib tanlangan	Rad etilgan
Keyslar	64	20	32	12
Ilmiy maqolalar	56	24	20	12
Autentik matnlar	48	16	22	10
Video materiallar	40	14	18	8
Jami	**208**	**74**	**92**	**42**

Model ijtimoiy buyurtma, metodologik asos, to‘rt komponent va pedagogik shartlardan iborat. Metodologik asosni pragmatik, kreativ, kompetensiyaviy, andragogik, integrativ (CLIL) va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi.

Maqsadli komponent kompetensiyaning to‘rt komponenti bo‘yicha vazifalarni va SOLO taksonomiyasining munosabatli hamda kengaytirilgan abstrakt darajalarida ifodalangan sakkizta ta’lim natijasini belgilaydi.

Mazmuniy komponent to‘rt blokdan iborat: nazariy asoslar; pedagogik vaziyat va qaror; pedagogik muloqot pragmatikasi; refleksiv amaliyot va loyihalash. Har bir mavzuda pedagogik, kreativ va lingvistik mazmun birga beriladi. Modul hajmi 5 kredit (60 auditoriya va 90 mustaqil ta’lim soati).

Jarayonli komponent to‘rt o‘qitish bosqichini (motivatsion-orientatsion, nazariy-tahliliy, amaliy-kreativ, refleksiv-loyihaviy) va kreativ-pragmatik mashg‘ulot siklini o‘z ichiga oladi; o‘qituvchi yordami bosqichma-bosqich kamaytiriladi.

Natijaviy komponent formativ baholash, besh mezonli kreativ mahsulot rubrikasi (originallik, pedagogik samaradorlik, nazariy asoslanganlik, kontekstga moslik, taqdimot va til), refleksiv portfolio va summativ baholashdan iborat: joriy nazorat 20, oraliq keys-test 20, yakuniy loyiha 50, portfolio 10 foiz.

Modelning markaziy metodik birlig - olti bosqichli kreativ-pragmatik sikl. U D.Kolbning tajribaviy ta'lim sikli [12], Osborn-Parns ijodiy muammo yechish modeli va dizayn tafakkuri bosqichlarini sintez qiladi; divergent va konvergent tafakkur bosqichlari almashinib keladi (1-rasm).



1-rasm: **Kreativ-pragmatik mashg'ulot sikli (6 bosqich)**

Birinchi bosqich auditoriyadan tashqarida (teskari sinf) bajariladi; 3- va 4-bosqichlar siklning kreativ yadrosi bo'lib, unda g'oyalar tanqidsiz yaratiladi, so'ng originallik va samaradorlik mezonlari bilan tanlanadi.

Yakuniy bosqichda tajriba guruhida o'rtacha ball 23,18 dan 27,06 ga (+16,7 %), nazorat guruhida 23,32 dan 24,54 ga (+5,2 %) oshdi (3-jadval). Guruhlar o'rtasidagi yakuniy farq statistik jihatdan ishonchli: $t = 3,87$; $p < 0,001$; $d = 0,58$. Daraja taqsimotlaridagi farq ham ishonchli ($\chi^2 = 7,76 > \chi^2krit = 5,99$; $p = 0,02$). Samaradorlik koeffitsiyenti $\eta = K(TG) / K(NG) = 0,78 / 0,67 = 1,15$.

3-jadval: **Pragmatik-pedagogik kompetensiyaning aniqlovchi va yakuniy bosqichlardagi ko'rsatkichlari**

Guruh	O'rtacha ball, aniqlovchi (SD)	O'rtacha ball, yakuniy (SD)	Yuqori daraja, aniqlovchi → yakuniy	Past daraja, aniqlovchi → yakuniy
Tajriba (n = 100)	23,18 (4,50)	27,06 (4,20)	26,0 % → 48,0 %	40,0 % → 15,0 %
Nazorat (n = 82)	23,32 (4,60)	24,54 (4,50)	28,0 % → 34,1 %	40,2 % → 31,7 %

Umumiy ball shkalasi 12-36. Har uchala OTMda tajriba guruhining o'sishi (16-18 %) nazorat guruhinikidan (5-6 %) taxminan uch baravar yuqori bo'ldi.

Olingan natijalar modelning asosiy g'oyasini tasdiqlaydi: kreativlik alohida mashg'ulot sifatida emas, balki ta'lim natijalari, o'quv faoliyati va baholashga birdek singdirilganda samara beradi. Bu J.Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish haqidagi xulosasiga mos keladi: talabalar baholanadigan narsani o'rganadi, shu sababli reproduktiv baholash saqlansa, kreativ usullar ham reproduktiv natija beradi [1]. Aniqlovchi bosqichda magistrantlarning 38,5 foizi tayyor javobni afzal ko'rgani aynan shu muammoni aks ettiradi; modelda baholashning 50 foizi yakuniy loyihaga berilishi bu "yopiq doira"ni buzishga qaratilgan.

Kuzatilgan ta'sir kattaligi ($d = 0,58$) J.Xetti ta'lim ta'sirlari uchun mo'ljal qilib olgan 0,40 qiymatidan yuqori [8]. Formativ qaytar aloqaning rubrika orqali topshiriqdan oldin taqdim etilishi "Men qayerga ketyapman?" savoliga aniq javob beradi [9] va kreativ mahsulot sifatini oshiradi. OECD loyihasida ham kreativlikni o'qitish va baholash uchun o'qituvchilarga aniq rubrikalar zarurligi qayd etilgan [19]; tadqiqotimizdagi besh mezonli rubrika shu tajribani modul darajasida qo'llashdir.

Ingliz tilidagi materiallar bo'yicha natijalar A.Gilmorning autentik material ta'lim oluvchi darajasiga mos tanlanishi va topshiriqlar bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim degan xulosasi bilan uyg'un [6]. Materiallarning 44 foizi (208 tadan 92) moslashtirishni talab qilgani shuni ko'rsatadiki, autentik materiallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, mezonlar va qo'llab-quvvatlash vositalari orqali kiritish zarur. Bu J.Svellerning kognitiv yuklama nazariyasiga ham mos: chet tilidagi pedagogik matnda mazmun va til murakkabligi birga ichki yuklama hosil qiladi [17].

Tadqiqotning cheklovlari ham bor.

Birinchidan, kvazi-eksperimentda guruhlar tasodifiy taqsimlanmagan; boshlang‘ich tenglik tasdiqlangan bo‘lsa-da, o‘lchanmagan omillar ta’sirini to‘liq istisno etib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, magistrantlar o‘quv guruhlari tarkibida o‘qigani uchun kuzatuvlar to‘liq mustaqil emas.

Uchinchidan, shakllantiruvchi bosqich bir semestr bilan cheklangan; natijalarning barqarorligini kechiktirilgan diagnostika orqali tekshirish lozim.

Alohida OTMlar kesimida farq yo‘nalishi bir xil bo‘lsa-da, kichik tanlanma sababli ishonchlilik chegarasiga yetmadi.

Amaliy jihatdan model kredit-modul tizimidagi 5 kreditli hajmni o‘zgartirmasdan joriy etilishi mumkin; materiallar banki kafedra darajasida yaratilib, har yili yangilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ingliz tilidagi o‘quv materiallarini tanlashning sakkizta didaktik mezoni (autentiklik, kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik, ilmiy ishonchlilik va dolzarblik, muammolilik, kreativ salohiyat, lingvistik muvofiqlik, madaniy moslashtirish imkoniyati, didaktik va texnik-huquqiy qulaylik) ishlab chiqildi; ular asosida 208 ta materialdan 166 tasi modul uchun materiallar bankiga kiritildi.

Konstruktiv muvofiqlashtirish va teskari loyihalash g‘oyalariga asoslangan model maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlarni yagona kreativ va pragmatik natijaga muvofiqlashtiradi; uning markaziy birligi - olti bosqichli kreativ-pragmatik mashg‘ulot sikli.

Tajriba-sinov modelning samaradorligini tasdiqladi: tajriba guruhida o‘rtacha ball 16,7 foizga (nazorat guruhida 5,2 foizga) oshdi, yuqori darajadagi magistrantlar ulushi 26 foizdan 48 foizga ko‘tarildi; farq statistik jihatdan ishonchli ($t = 3,87$; $p < 0,001$; $d = 0,58$).

Modelni kredit-modul tizimidagi mavjud hajmda boshqa pedagogik modullarga moslashtirish va natijalarning barqarorligini uzoq muddatli tadqiqotlarda tekshirish keyingi tadqiqotlar vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. - 1996. - Vol. 32, № 3. - P. 347-364.
2. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. - 4th ed. - Maidenhead: Open University Press, 2011.
3. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. - 2nd ed. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.
4. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
5. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.
6. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. - 2007. - Vol. 40, № 2. - P. 97-118.
7. Grellet F. Developing Reading Skills: A Practical Guide to Reading Comprehension Exercises. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
8. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. - London: Routledge, 2009.
9. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. - 2007. - Vol. 77, № 1. - P. 81-112.
10. Hu M., Nation I.S.P. Unknown Vocabulary Density and Reading Comprehension // Reading in a Foreign Language. - 2000. - Vol. 13, № 1. - P. 403-430.
11. Developing Creativity in Higher Education: An Imaginative Curriculum / ed. by N.Jackson, M.Oliver, M.Shaw, J.Wisdom. - London: Routledge, 2006.
12. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.
13. McGrath I. Materials Evaluation and Design for Language Teaching. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2002.
14. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983. - 374 p.
15. Shadish W.R., Cook T.D., Campbell D.T. Experimental and Quasi-Experimental Designs for Generalized Causal Inference. – Boston: Houghton Mifflin, 2002.
16. Shared ‘Dublin’ Descriptors for Short Cycle, First Cycle, Second Cycle and Third Cycle Awards. - Joint Quality Initiative, 2004.
17. Sweller J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning // Cognitive Science. - 1988. - Vol. 12, № 2. - P. 257-285.
18. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. - 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
19. Vincent-Lancrin S., González-Sancho C., Bouckaert M. et al. Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking: What It Means in School. - Paris: OECD Publishing, 2019.
20. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. - 2nd ed. - Alexandria, VA: ASCD, 2005.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.